

ROLI O‘YINLAR ASOSIDA TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Yusufxodjayeva Firdovusxon Muxtorovna

Qo‘qon DU Tehnologik ta‘lim va
kutubxonashunoslik kafedrası dotsenti

Аннотация.

В данной статье освещаются вопросы повышения эффективности образовательного процесса с использованием дидактических игр, в частности ролевых игр. Проанализировано значение ролевых игр в повышении уровня знаний учащихся, развитии их социальной активности и формировании навыков самостоятельного мышления.

Ключевые слова: Дидактическая игра, ролевая игра, деловые игры, образовательные технологии, интерактивные методы, учебная активность, педагогика.

Abstract.

This article highlights the issues of improving the effectiveness of the educational process through the use of didactic games, particularly role-playing games. The importance of role-playing games in enhancing students' knowledge, developing their social activity, and fostering independent thinking skills is analyzed.

Keywords: Didactic game, role-playing game, business games, educational technologies, interactive methods, learning activity, pedagogy.

O‘zbekistonimizning ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi innovatsion jarayonlar o‘z navbatida ta‘lim-tarbiya sohasida ham tubdan o‘zgarishlar qilishni talab etmoqda, ya‘ni har bir pedagog, mutaxassislarning o‘z sohalarida interfaol metodlardan unumli foydalanish zarurati paydo bo‘lmoqda. SHu sababli pedagogikada interfaol metodlardan foydalanish bugungi kunning dolzarb va istiqbolli masalalaridan biridir. CHunki, o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berishda an‘anaviy o‘qitish usullari bilan chegaralanib qolmasdan, intefaol usullardan

foydalanish orqali o‘qitishning sifat darajasini oshirib, yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Buning uchun o‘qituvchilar o‘qitishning interfaol turlarini o‘z darslarida qo‘llay olish mahoratiga ega bo‘lishi zarur [1].

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarni faollashtirish, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda didaktik o‘yinlar alohida o‘rin tutadi. Xususan, rolli o‘yinlar o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilishda samarali interaktiv usul sifatida qo‘llaniladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg‘uradigan, shuningdek jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Lekin ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin. Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasb-korini egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o‘z hissasini qo‘shib, yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi, ya’ni shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma’noda kasbiy shakllanish deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biron-bir kasb sohasida ta’lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo‘lib yetishishi tushiniladi [2].

Mustaqil O‘zbekistonimizning ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi innovatsion jarayonlar o‘z navbatida ta’lim-tarbiya sohasida ham tubdan o‘zgarishlar qilishni talab etmoqda, ya’ni har bir pedagog, mutaxassislarning o‘z sohalarida didaktik o‘yinli darslardan unumli foydalanish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shu sababli

pedagogikada didaktik o‘yinlardan foydalanish bugungi kunning dolzarb va istiqbolli masalalaridan biridir. Chunki, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda an’anaviy o‘qitish usullari bilan chegaralanib qolmasdan, didaktik o‘yinli dars usullardan foydalanish orqali o‘qitishning sifat darajasini oshirib, yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Buning uchun o‘qituvchilar o‘qitishning didaktik o‘yin turlarini o‘z darslarida qo‘llay olish mahoratiga ega bo‘lishi zarur [3].

“Rolli o‘yinlar (ishchanlik yoki ishbilarmonlik o‘yinlari)” Bunday o‘yinlar muammoli topshiriqlarning bir ko‘rinishidir. Sahnalashtirish va obrazli chiqishlar bunday mashg‘ulotlarning asosiy belgisidir. Ishbilarmonlik, bilimdonlik, topqirlik, quvnoqlik, hozirjavoblik, ijodkorlik, ishchanlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlarni namoyish qilishga keng imkon beradi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining salohiyatiga mos vazifa topshirishi juda muhimdir. Birinchi va ikkinchi darajali ishtirokchilar bo‘lmasligini ta’minlash ham talab qilinadi. O‘quv mashg‘uloti hayotdagi aniq vaziyatga ko‘proq yaqinlashadi [4].

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida tub o‘zgarishlar qilish uning bosh maqsaddir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi-ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas’uliyatli vazifadir [5].

Xulosa qilib aytganda, rolli o‘yinlar didaktik o‘yinlarning samarali turi bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usulni dars jarayonida keng qo‘llash o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish va ularni hayotiy ko‘nikmalar bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarni rolli o‘yinlarda ularni bilimi va mehnat malakalarini yaqin bo‘lishiga e’tibor berish kerak. Bunday rolli o‘yinlarning

o‘quv yili davomida doimiy faoliyat ko‘rsatib borishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bunda o‘quvchilar rolli o‘yinlarda ishlash orqali berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida sifatli bajarishga o‘rganadilar, ayrim ish usullarini bajarishga qiynalib qolgan o‘rtoqlariga yordam beradilar. Shu orqali o‘quvchilarda rolli o‘yinlarda ishlash orqali ularda mehnat malakalari yanada mustahkamlanadi. Bu esa o‘quvchilarning kelgusida mustaqil va ijobiy ishlashiga asos bo‘ladi.

Bu darsni olib borish jarayonida quyidagi yutuqlarga erishiladi;

- 1) o‘quvchilarda rolli o‘yinlarda ishlash ishbilarmonlik, bilimdonlik, topqirl, quvnoqlik, hozirjavoblik, ijodkorlik, ishchanlik va yaratuvchanlik kabi xislatlari shakillanadi;
- 2) musobaqa sharoiti yaratilganligi sababli o‘quvchilarning qiziqishlari, talabchanliklari va intiluvchanliklari ortadi;
- 3) dars davomida barcha o‘quvchilarni baholash mumkin;

Bunday usullardan foydalanish darsda yaxshi natijalar beradi. O‘quvchilar darsni yaxshi tushunadilar va ularning nutqi o‘sadi. Bunday usulda dars o‘tish o‘quvchilarda darsga qiziqish uyg‘otadi. O‘qitish metodlarini ma’lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008 – 176 bet.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Toshkent, “Sharq”, 1997 – 64 bet.
- 3.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari Toshkent, “Fan”, 2006 – 256 bet.
- 4.Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar Toshkent, “Moliya”, 2003 – 172 bet.
- 5.Ishmuhammedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar Toshkent, “Iste’dod”, 2008 – 144 bet.